



TEORETICAL BASICS OF FORMING ECOLOGICAL THINKING AND CULTURE AMONG YOUTH

Nazarov Makhsud Abduqodirovich

Researcher at the National University of Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262170>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 21st April 2025

Online: 22nd April 2025

KEYWORDS

Ecological thinking, ecological culture, ecological education and upbringing, continuous ecological education, ecological consciousness, ecological ethics, person's «internal ecology», local studies, attitude towards nature, different age periods, ecologization.

ABSTRACT

The article analyzes the pedagogical aspects of forming ecological thinking and culture among youth. It covers issues of developing ecological culture at various stages of education: preschool, primary, secondary, and higher education. The role of family, school, and society in developing an individual's ecological consciousness and moral views is demonstrated. Proposals for improving ecological education and upbringing, the importance of local studies, and ways to integrate theory and practice in forming ecological consciousness are presented.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ

Назаров Махсуд Абдукадирович

Соискатель Национального университета Узбекистана

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262170>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 21st April 2025

Online: 22nd April 2025

KEYWORDS

Экологическое мышление, экологическая культура, экологическое образование и воспитание, непрерывное экологическое образование,

ABSTRACT

В статье анализируются педагогические аспекты формирования экологического мышления и культуры у молодежи. Освещены вопросы формирования экологической культуры на различных этапах образования: дошкольное образование, начальное образование, среднее образование и высшее образование. Показана роль семьи, школы и общества в развитии экологического сознания и нравственных взглядов личности. Представлены предложения по совершенствованию экологического образования и воспитания, значению краеведения, путям интеграции теории и практики в формировании экологического сознания.



*экологическое сознание,
экологическая этика,
«внутренняя экология»
личности, краеведение,
отношение к природе,
различные возрастные
периоды, экологизация.*

YOSHLARDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nazarov Maxsud Abduqodirovich

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15262170>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 21st April 2025

Online: 22nd April 2025

KEYWORDS

*Ekologik tafakkur,
ekologik madaniyat,
ekologik ta'lim-tarbiya,
uzluksiz ekologik ta'lim,
ekologik ong, ekologik
axloq, shaxsning «ichki
ekologiyasi»,
o'lkashunoslik, tabiatga
munosabat, turli yosh
davrlari,
ekologiyalashtirish.*

ABSTRACT

Maqolada yoshlarda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Ta'limning turli bosqichlarida, ya'ni maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shaxsning ekologik ongi va axloqiy qarashlarini rivojlantirishda oila, maktab va jamiyatning o'rni ko'rsatilgan. Ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirish, o'lkashunoslikning ahamiyati, ekologik ongni shakllantirishda nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish yo'llari bo'yicha takliflar berilgan.

KIRISH

Hozirgi davrda yuzaga kelgan ekologik vaziyat ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olgan ekan, uning ta'siridan endigina tug'ilgan, o'sib kelayotgan murg'ak bolalar ham, maktab yoshidagi o'smirlar ham tashqarida bo'la olmaydi. Shuning uchun oilada, maktabgacha muassasalarda, umumta'lim maktablarida ekologik axloq va madaniyatni tarbiyalash dolzarb vazifalardandir. Masalani O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, «Buning uchun jamiyatda axloqiy-ekologik ongni shakllantirish va «zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak» (1).

So'nggi yillarda jamiyat ekologik axloqini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, turli taklif-tashabbuslar milliy qonunchilikda hamda hukumat darajasida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarda o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi PQ-174-sonli «Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori (2)



mamlakatimizda ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bir qator vazifalarni bajarish talab etiladi. Xususan, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ekologik ta'lim va tarbiyani samarali tashkil etish, ekologik tafakkurni rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ekologik madaniyatning pedagogik asoslari va uni shakllantirish metodikasi Y.B. Aydarov, Z. Abdullaev, Y.Sh. Shodimetov, K. Yunusov, T. Djarlepesov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Z. Abdullaev «Ekologik munosabatlar va ekologik ong» asarida ekologik ong va dunyoqarashning shakllanish jarayonini tahlil qilib, «agar dunyoqarash insonning dunyoga, o'ziga va o'zining atrof muhit bilan munosabatlariga qarashli bo'lsa, endigi dunyoqarash insonning, atrof dunyoning, bir so'z bilan aytganda «olam-inson» tizimining yaxlitligini tushunish yo'nalishida qayta ko'rib chiqishni shartlab qo'yadi» deb ta'kidlaydi (10). Muallif ekologik dunyoqarashning bugungi zamon ma'naviy taraqqiyotidagi o'rnini belgilab, ta'lim tizimini ekologiyalashtirish orqali shaxsning ma'naviy dunyosini boyitish mumkinligini ko'rsatib o'tadi.

Ye.B. Aydarov o'zining «O'quvchi yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish» maqolasida yoshlar ma'naviy-ahloqiy qiyofasining ekologik madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi: «Bugungi kunda o'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi asosan ularning ekologik bilim darajasi, tabiatni asrash va muhofaza qilishga bag'ishlangan dunyoqarashi va tafakkur doirasining kengligi asosida ekologik madaniyati shakllanadi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatleri asosan inson shaxsining ruhiy-ma'naviy-axloqiy va ekologik tarbiya jihatlarini ham o'z ichiga oladi» (6).

Yu.Sh. Shodimetov «Ijtimoiy ekologiyaga kirish» kitobida shaxsning ekologik madaniyati, ya'ni atrof tabiiy muhitga amaliy ongli munosabatini shakllantirish masalalarini o'rgangan. Muallif turli yosh davrlarida ekologik ongni rivojlantirish xususiyatlarini tahlil qilib, «o'rta maktab yoshida shaxs sog'lom turmush tarzini shakllantirish va saqlab borish, inson bioijtimoiy tabiatining yaxlitligini, uning atrof olam bilan o'zaro bog'liqligini, tabiatning tizimliliga va biosferaning yashash uchun yaroqli sifatlardan mahrum bo'lishining xavfligini tushunish negizida ekologik jihatdan maqsadga muvofiq faoliyat olib borish bo'yicha bilim, ko'nikma va mahorat, asos hamda ijtimoiy yo'l-yo'riq kasb etadi» deb yozadi (19).

K. Yunusov «Sotsiologiya» darsligida o'rta maktabning yuqori sinflari o'quvchilarini ekologik tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, «o'rta maktabning yuqori sinflari yoshlarning maktab ta'limi va tarbiyasi siklini yakunlaydi, o'rta maktabni bitiruvchilarning ko'pchiligi mehnat faoliyatini boshlab yuboradi, ular o'quv sinflariga qaytishsa, bu vaqtinchalik bo'lib, o'quv faoliyati ular uchun asosiy kuch sarflaydigan soha bo'lmay qoladi. Shuning uchun yoshlarni faol mehnat faoliyatiga tayyorlash, shu jumladan ularning ekologik ta'lim-tarbiyasi uchun alohida mas'uliyat o'rta maktablarining yuqori sinflari zimmasidadir» (20).



T. Djarlepesov «Yana bir dars» maqolasida ekologik tarbiyani amalga oshirishda o'lkashunoslikning o'rnini va roli masalalarini tadqiq qilgan. Muallif «maktab o'lkashunosligi maqsad va vazifalarini yangi darajaga ko'tarish kerak» deb hisoblaydi va bu fanni «bizga tahdid solib turgan dunyo miqyosidagi barcha ekologik muammolarini hisobga olgan holda, ularning tarixiy izchilligi bo'yicha va muqarrar ravishda istiqboliga ham nazar tashlagan holda o'quv jarayonida foydalanish» zarurligini ta'kidlaydi (21).

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirish muammosi pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda bu masalani yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining turli bo'g'inlarida ekologik tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini, shaxsning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik tarbiya jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanishi lozim. Bu davrda bolaning tabiatga bo'lgan munosabati, uning ekologik ongi shakllanishi uchun ilk poydevor qo'yiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim:

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, insonning tabiatning ajralmas bog'liqligini kundalik hayotdan olingan oddiy misollar orqali, bevosita tabiat qo'ynida tushuntirib borish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, maktab ostonasiga qadam qo'yish arafasidagi (6-7 yoshli) bolalarga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatning betakror go'zalligi va uning insoniyatga bergan ne'matlari haqida dastlabki tushunchalarni berish muhim. Bu yoshda bolalarning ongiga ekologik tafakkurning ilk kurtaklarini singdirish kerak.

Uchinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda amaliy mavzular asosida ish olib borish samarali natija beradi. Masalan, «Suvni tejash», «Elektr energiyasidan to'g'ri foydalanish», «Maishiy chiqindilarni to'g'ri saralash», «Mening sevimli tabiat burchagim» kabi mavzular bolalarda tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Bola kichik maktab yoshida tabiat bilan mustaqil o'zaro ta'sirga kirishisha oladi, demak unda ekologik ong shakllanishi yanada faollashadi. Odatda, bu yoshda sportning ayrim turlari bilan shug'ullanishga, tabiat hodisalari sabablarini aniqlashga ishtilish, uy jayvonlarini o'ynatishga moyillik va hokazolar ko'zga tashlanadi. Bu ehtiyojlarni vaqtida qo'llab-quvvatlash va ularni zarur yo'lga solish maktab va oilaning vazifasidir. Ayni paytda kattalar bolalarning o'zlariga ishonib topshirib qo'yilgan jonivorlar hayoti uchun mas'uliyatni nazorat qilib borishlari va shu mas'uliyat darajasini ko'tarishlari, jonivorlar bilan munosabat o'yin bo'lib qolmasligini kuzatib borishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ekologik bilimlarni shakllantiruvchi qiziqarli ma'lumotlarni berish («Tabiatshunoslik» kursi hamda boshqa maktab kurslarining ekologik mavzulari, sinfdan tashqari mavzuiy mashg'ulotlar);



- asosiy mehnat ko'nikmalarini hosil qilish (bino va hududni yig'ishtirish, ko'chat o'tqazish, jonivorlar va o'simliklarni mas'uliyat bilan parvarishlash).

Tadqiqot materiallari ko'rsatishicha, boshlang'ich sinflarda ekologik ta'lim-tarbiya bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Xususan, «1 dan 4 sinfgacha bo'lgan boshlang'ich sinflarda, masalan, o'quvchilar ekologiya bilan «Bizni o'rab turgan olam» bo'limida tanishadilar, yuqori sinflarda esa, garchi qator darsliklarda ekologiya bo'yicha material kam berilibgina qolmay, balki umuman berilmagan bo'lsa-da, bu kamchilik» ta'lim tizimini takomillashtirishni talab qiladi.

Umumta'lim maktablarining o'rta sinflarida shaxs ekologik madaniyati, ya'ni atrof tabiiy muhitga amaliy ongli munosabati shakllanadi. Bu bosqich bolaning axloqiy, estetik, ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu davrda uni atrofda qilargaga, o'rtoqlariga, jumladan borliqqa, tabiatga munosabati jiddiy o'zgarib boshlaydi. Pedagog-psixologlar ta'kidlaganidek, bolalikdan o'smirlikka o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Uning dunyoqarashi, voqea-hodisalarni baholash mezonlari yangi mazmun bilan boyidi. O'z-o'zini anglashda etarli asoslanmagan «men» degan tushuncha oldingi safga chiqadi. Bularning barchasi o'rta sinf bolalariga nisbatan alohida yondoshishni talab qiladi, ularning faoliyatini ehtiyotlik bilan nazorat qilib borish zaruriyati tug'iladi.

Bu davrda shaxs sog'lom turmush tarzini shakllantirish va saqlab borish inson bioijtimoiy tabiatning yaxlitligini, uning atrof olam bilan o'zaro bog'liqligini, tabiatning tizimlilikiga va biosferaning yashash uchun yaroqli sifatlardan mahrum bo'lishining xavfligini tushunish negizida ekologik jihatdan maqsadga muvofiq faoliyat olib borish bo'yicha bilim, ko'nikma va mahorat, asos hamda ijtimoiy yo'l-yo'riq kasb etadi.

O'rta maktabning yuqori sinflari yoshlarning maktab ta'limi va tarbiyasi siklini yakunlaydi, o'rta maktabni bitiruvchilarning ko'pchiligi mehnat faoliyatini boshlab yuboradi, ular o'quv sinflariga qaytishsa, bu vaqtinchalik bo'lib, o'quv faoliyati ular uchun asosiy kuch sarflaydigan soha bo'lmay qoladi. Shuning uchun yoshlarni faol mehnat faoliyatiga tayyorlash, shu jumladan ularning ekologik ta'lim-tarbiyasi uchun alohida mas'uliyat o'rta maktablarining yuqori sinflari zimmasidadir.

O'rta maktab bitiruvchisi ijtimoiy jarayonlar uchun, shu jumladan ekologik jihatdan toza muhitni saqlab turish hamda takomillashtirishda shaxsiy mas'uliyat mezonini, ahloqiy shaxsiy sayi-harakatining ahamiyatini aniq tasavvur etishi lozim. Bu uning kelgusidagi butun hayotiy faoliyatida etakchi g'oya, dunyoqarash, falsafiy tafakkur shakllanishining sarchashmasi bo'lib qolishi mumkin.

Bu vaqtda o'rta maktabda o'rganiladigan o'quv fanlari o'z mazmuniga ko'ra, ekologik muammolarni jiddiy ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb qilib qo'yish imkonini beradi. Ammo shuni afsus bilan qayd etish mumkinki, hozir maktab kurslarida o'rganilayotgan masala va mavzularning ekologik mazmuni juda sayoz. Maktablarda «Atrof muhitni muhofaza qilish» kursi o'rganilayotgani va undan maqsad o'quvchilarga ekologik madaniyatni singdirishdan iborat ekanligiga qaramay, darsliklardagi materiallar va o'quv dasturlari takomillashtirishni talab etadi.

Oliy o'quv yurtlari - bu yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydigan oxirgi bosqich. Jamiyat esa oliy dargoh bitiruvchisidan nafaqat yaxshi mutaxassis bo'lishini, balki yuksak madaniyatli, ayniqsa ekologik madaniyatli inson bo'lishini ham kutadi. Oliy o'quv yurti



bitiruvchisining ekologik madaniyati jamiyat uchun juda muhim, chunki u o'z mavqei bilan boshqalarga, ayniqsa yoshlarga namuna bo'ladi.

Tabiiy-ilmiy tafakkurni ekologiyalashtirish — navbatdagi kompaniya bo'lmay, balki insoniyatning omon qolish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan zaruratdir. Tabiatshunoslar buni hammadan ko'ra ko'proq his etishlari zarur. Ayniqsa, bu zaruriyatni hozirgi zamon molekulyar biologiyani rivojlantirish gen injeneriyasi vujudga kelishi bilan bog'liq. Bu hol jiddiy ijtimoiy va ajloqiy muammolarni o'rta qo'ydi. Shunday sharoitda ong va tafakkurni ekologiyalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularning ekologik bilim va madaniyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Mustaqil topshiriqlar, ilmiy ma'ruzalar, loyihalar tayyorlash orqali talabalarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar ham shakllanadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, «maktab o'lkashunosligi maqsad va vazifalarini yangi darajaga ko'tarish kerak, - bu fanni bizga tahdid solib turgan dunyo miqyosidagi barcha ekologik muammolarini hisobga olgan holda, ularning tarixiy izchilligi bo'yicha va muqarrar ravishda istiqboliga ham nazar tashlagan holda o'quv jarayonida foydalanish» zarur.

O'lkashunoslikka bag'ishlangan aqliy, ilmiy ommabop, ayniqsa badiiy adabiyotlar bilan o'quvchilarni muntazam tanishtirib borish o'zining samarasini beradi. Bunday yondashuv orqali «o'quvchilar jonajon diyor, biosferaning ekologik holati bilan tanishibgina qolmay, balki uning ofat-falokatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rishlari, tabiat, uning olami bilan hamdard bo'lish tuyg'ulari shakllanadi».

Har bir yoshning genetik xususiyatlari va tabiiy iqtidori uning ijtimoiy-biologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu tabiiy qobiliyatlarni amaliy ko'nikmalar va dolzarb bilimlarga aylantirish uchun izchil pedagogik yondashuv talab etiladi. Pedagogik jarayonning asosiy maqsadi insonning ichki dunyosidagi tabiiy va ijtimoiy bog'lanishlarni uyg'unlashtirishdir. Bu insonning «ichki ekologiyasi» deb ataluvchi murakkab tizimni shakllantiradi. «Shaxsning atrof-muhit bilan muvozanatli munosabatlari, ya'ni «tashqi uyg'unlik» hosil bo'lgandagina, uning ichki dunyosida ham mutanosiblik yuzaga keladi. Bu ikki jihat bir-birini to'ldiradi va yoshlarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi».

Shaxsning «ichki ekologiyasi» uning faqat tabiatga bo'lgan munosabatiningina emas, balki o'z-o'ziga, o'z salomatligiga, o'z tafakkuriga bo'lgan munosabatini ham o'z ichiga oladi. Bu jihatdan, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Malakali mutaxassislar uchun ham, jamiyatning har bir a'zosi uchun ham tabiiy va ijtimoiy muhitda faoliyat yuritishda ekologik tamoyillar asosida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim-tarbiya vazifadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va natijalar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, muntazam va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bunda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari - oila, ta'lim muassasalari, mahalla, jamoat tashkilotlari va butun jamiyatning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish, ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ekologik ta'lim-tarbiyaga kompleks yondashuv zarur.



2. Shaxsning ekologik axloqini shakllantirish uchun uch muhim joyda tarbiya berish kerak: oilada, bog'chada va maktabda. Bu joylarda bolalarga tabiat bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni, atrof-muhitni ehtiyot qilishni va o'zining ichki dunyosini rivojlantirishni o'rgatish lozim.
3. Oliy o'quv yurtlari - bu yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydigan oxirgi bosqich. Jamiyat esa oliy dargoh bitiruvchisidan nafaqat yaxshi mutaxassis bo'lishini, balki yuksak madaniyatli, ayniqsa ekologik madaniyatli inson bo'lishini ham kutadi. Oliy o'quv yurti bitiruvchisining ekologik madaniyati jamiyat uchun juda muhim, chunki u o'z mavqei bilan boshqalarga, ayniqsa yoshlarga namuna bo'ladi.
4. Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya samaradorligini oshirish uchun ta'lim dasturlarida ekologik mavzularni kengaytirish, darsliklarni ekologik mazmun bilan boyitish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu jarayonda alohida o'quv fanlari doirasida ekologik mavzularni o'rganish bilan cheklanib qolmay, barcha fanlarni ekologiyalashtirishga erishish lozim.
5. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda o'lkashunoslikning ahamiyatini oshirish, o'lkashunoslik bilimlarini ekologik muammolar bilan bog'lab o'rganish talab etiladi. O'lkashunoslik orqali o'quvchilarda mahalliy ekologik muammolarga nisbatan mas'uliyat va daxldorlik hissini uyg'otish, ularni hal etishda faol ishtirok etishga undash mumkin.
6. Ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish - muhim vazifa. Bilim, ko'nikma va malakalar birligi asosida ekologik madaniyatni shakllantirish, o'quvchi va talabalarning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida faol ishtirokini ta'minlash, ekologik aksiyalar, tadbirlar, loyihalarni amalga oshirishga jalb etish samarali natija beradi.
7. Yoshlarda ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarga tayanish, ajdodlarimizning tabiatga ehtiromli munosabati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda zardushtiylik ta'limoti, tasavvuf falsafasi, xalq pedagogikasi an'analarni o'rganish va ulardan zamonaviy ekologik ta'lim-tarbiyada foydalanish maqsadga muvofiqdir.
8. Ekologik tarbiya va mafkuraviy tarbiya o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlash orqali yoshlarda nafaqat tabiatga mas'uliyatli munosabatni, balki Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini ham shakllantiradi. Bugungi kunda ta'lim muassasalari va oilada ekologik tarbiya va mafkuraviy tarbiyani birlashtirgan holda olib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish orqali yoshlarda sog'lom ekologik dunyoqarash va mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.
9. Ushbu jarayonni milliy mafkura va qadriyatlarimiz asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya tizimida ekologik va mafkuraviy tarbiyani uzviy bog'liqlikda amalga oshirish, yoshlarda tabiatga bo'lgan muhabbatni Vatanga bo'lgan muhabbat bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi.
10. Ushbu xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:
11. Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash uchun davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish, xususan, ekologik mavzularning ulushini oshirish.



12. Ta'lim muassasalarida «Ekologik etika», «Ekologik o'lkashunoslik», «Ekologik savodxonlik» kabi maxsus kurslarni joriy etish.
13. O'qituvchi va tarbiyachilarning ekologik savodxonligini oshirish maqsadida maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
14. Ekologik ta'lim-tarbiya uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalarini yaratish.
15. Ta'lim muassasalarida ekologik tadbirlar, aksiyalar, to'garaklar, ekspeditsiyalar, ekskursiyalar tashkil etish orqali o'quvchi va talabalarning amaliy faoliyatini kuchaytirish.
16. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish.
17. Ekologik ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy an'analar bilan uyg'unlashtirgan holda amaliyotga joriy etish.
18. Ekologik tarbiyada oila, mahalla, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish.
19. Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish.
20. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi yoshlarda yuksak ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirishga, jamiyatda ekologik ongini yuksaltirishga, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

References:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent: 2020. O'zbekiston. –B. 387.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi PQ-174-sonli «Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. <https://lex.uz/en/docs/6487227>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilash bo'yicha 2019-2030 yillar uchun Konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida»gi 484-son qarori.
4. Abdylloev Z. Экологические отношения и экологическое сознание. — Ташкент: Фан, 1990. — С. 17-41.
5. Abdylloev Z. Экологические отношения и экологическое сознание. —Ташкент: Фан, 1990. — С. 21—35.
6. Aydarov Ye.B. O'quvchi yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish. Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie, 2019, 8(81). –B.65.
7. Djaplepёcov T. Ещё один урок. // Экологический вестник. — 1999. — №1—2. — С. 39.
8. Туронов М.М. Экологические знания и сознание: философское осмысление. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.— Ташкент, 1993. — С. 11—16.
9. Шодиметов Ю.Ш. Введение в социэкологию. —Ташкент: Узбекистон, 1993. — С. 15—43.



10. Эргашев А.Э., Pydenko I., Davletov C. Основы экологии. —Ташкент: Узбекистон, 1996. — С. 13—23.
11. Yunusov K. Sotsiologiya. — Andijon: ADU, 1997; — S. 83—89.
12. G'affarova G.G'. Ekologik harakatning ijtimoiy-falsafiy tahlili: Falsafa fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2008. — B. 18-21.
13. Qo'shoqov Sh. Umumta'lim maktab o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari bo'yicha fal. doktori diss. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2018. – 52 b.
14. Xasanova K.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Pedagogika fanlari nomzodi ... diss. — Toshkent, 2006. — 152 b.
15. Armstrong J.B., Impara J.C. The Impact of an Environmental Education Program on Knowledge and Attitude // Journal of Environmental Education. – 2019. - №22(4). – P.36-40.
16. Gray D.B., Borden R.J., Weigel R.H. Ecological Beliefs and Behaviors: Assessment and Change. Westport, CT: Greenwood Press, 2020. – 356 p.
17. Palmer J. Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress and Promise. London: Routledge, 2018. – 284 p.
18. Smith-Sebasto N.J. Environmental Education in the United States: Status, Trends and Implications for the Future // Environmental Education Research, 2021. - №28(3). – P.300-315.
19. Tilbury D. Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s // Environmental Education Research. – 2017. - №1. – P.195-212.
20. Stapp W., et al. The Concept of Environmental Education // Journal of Environmental Education. – 2018. - №1. – P.30-31.